UO‘K 81

O‘ZBEK, TURK VA INGLIZ MAQOLLARIDA “OILA VA QARINDOSHLIK” KONSEPTLARINING KOGNITIV-VERBALIZATSION XUSUSIYATLARI

Tosheva Dildora Abdumalikovna,
Osiyo xalqaro universiteti O‘zbek va rus filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ms.dildora07.88@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada o‘zbek, turk va ingliz tillari paremiologik fondida “Oila” va “Qarindoshlik” konseptlarining kognitiv-verbalizatsion xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqot kognitiv tilshunoslik, konseptual tahlil hamda lingvokulturologiya tamoyillariga tayanadi. Tahlil natijasida ushbu uch tilda oila konseptining umumiy invariant yadrosi (birlik, mehr, himoya, tarbiya, davomiylik) mavjudligi, biroq ularning lisoniy verbalizatsiyasida etnomadaniy tafovutlar ustuvor ekani ko‘rsatib berilgan. Maqolada “oila”, “ota-ona”, “farzand”, “qarindoshlik”, “oilaviy birdamlik” va “nasl-davomiylik” kabi kognitiv submodellar ajratilib, ularning lisoniy obyektivlashuvi ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, konsept, oila, qarindoshlik, paremiologiya, maqol, verbalizatsiya, kognitiv model, lingvomadaniyat.*

КОГНИТИВНО-ВЕРБАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТОВ “СЕМЬЯ И РОДСТВО” В УЗБЕКСКИХ, ТУРЕЦКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация. *В данной статье в сравнительно-сопоставительном аспекте исследуются когнитивно-вербализационные особенности концептов «Семья» и «Родство» в паремиологическом фонде узбекского, турецкого и английского языков. Исследование опирается на принципы когнитивной лингвистики, концептуального анализа и лингвокультурологии. В результате анализа выявлено наличие общего инвариантного ядра концепта семьи (единство, любовь, защита, воспитание, преемственность) в трех языках, однако способы его языковой вербализации обусловлены национально-культурной спецификой. В статье выделены когнитивные субмодели «семья», «родители», «ребёнок», «родство», «семейное единство» и «преемственность поколений», а также научно обоснованы способы их языковой объективации.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, концепт, семья, родство, паремиология, пословица, вербализация, когнитивная модель, лингвокультура.*

COGNITIVE-VERBALIZATION FEATURES OF THE CONCEPTS “FAMILY AND RELATIVITY” IN UZBEK, TURKISH, AND ENGLISH PROVERBS

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the cognitive and verbalization characteristics of the concepts “family” and “kinship” within the proverbial frameworks of the Uzbek, Turkish, and English languages. The study relies on the principles of cognitive linguistics, conceptual analysis, and linguoculturology. The findings reveal a shared invariant core of the family concept (unity, affection, protection, upbringing, continuity) across all three languages; however, its linguistic verbalization is significantly shaped by ethno-cultural specifics. The paper outlines cognitive submodels such as “family”, “parents”, “child”, “kinship”, “family unity”, and “intergenerational continuity”, demonstrating their specific modes of linguistic objectification.*

Key words: *cognitive linguistics, concept, family, kinship, paremiology, proverb, verbalization, cognitive model, linguoculture.*

Kirish. Til birliklari insonning borliq haqidagi bilimlarini shunchaki nomlabgina qolmay, ularni muayyan konseptual tizimlar asosida tartibga soladi. Ayniqsa, maqollar xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me’yorlari va qadriyatlarini ixcham lisoniy shaklda mujassamlashtirganligi sababli kognitiv tadqiqotlar uchun muhim material hisoblanadi. Maqolning mazmuni uning tarkibidagi alohida so‘zlarning yig‘indisidan iborat bo‘lmay, nutq egasi va tinglovchining umumiy madaniy hamda tajribaviy bilimlarini ham faollashtiradi. Shu ma’noda parema muayyan konseptual tuzilmani ixchamlashtirib, uni

kommunikativ vaziyatda qayta faollashtiruvchi lisoniy birlik sifatida qaralishi mumkin. Oila va qarindoshlik insonning biologik, ijtimoiy va madaniy mavjudligini belgilovchi universal sohalardan biridir. Shuning uchun mazkur konseptlar turli xalqlar paremiologik fondida keng ifodalanadi. Biroq universal ijtimoiy hodisaning barcha tillarda bir xil tarzda konseptuallashtirilishi shart emas. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, qarindoshlik tizimi, nikoh va oilaviy munosabatlari, avlodlararo aloqalari hamda ijtimoiy qadriyatlari ushbu konseptlarning lisoniy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O'zbek xalq maqollari oilani inson va jamiyat munosabatlarining muhim markazi sifatida aks ettiradi. "O'zbek xalq maqollari" to'plamining so'zboshi qismida maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, turmush tarzi, inson, oila va jamiyat haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi folklor birliklari sifatida tavsiflanadi[1]. Demak, oila konseptining paremiologik verbalizatsiyasi xalqning ijtimoiy xotirasi bilan bevosita bog'liq. *"Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona"* maqollari umumiy mazmun jihatidan **oilaning inson tarbiyasi, ma'naviy shakllanishi va ijtimoiy hayotidagi muhim o'rnini** ifodalaydi. Turk paremiologiyasida ham oila va qarindoshlik alohida mazmuniy qatlamni tashkil etadi. Tadqiqotlarda turk maqollarida ota, ona, farzand, aka-uka, opa-singil, amaki, tog'a, xola, qaynota, qaynona, kelin va boshqa qarindoshlik nomlari orqali turli ijtimoiy rollarning modellashtirilishi qayd etilgan [2]. Xususan, qarindoshlik nomlarining maqollarda qo'llanishi nafaqat qarindoshlik aloqasini bildiradi, balki mazkur shaxsga nisbatan jamiyatning baholovchi munosabatini ham ifodalaydi [3]. *"Ana gibi yar, Bağdat gibi diyar olmaz", "Oğlan dayıya, kız halaya çeker", "Et tırnaktan ayrılmaz"* maqollari turk paremiologiyasida ona–farzand, qarindoshlararo o'xshashlik va qarindoshlik rishtalarining mustahkamligi kabi munosabatlarni aks ettiradi. Ularda *ana, oğlan, dayı, kız, hala* kabi qarindoshlik nomlari bevosita verbalizatsiya vositasi bo'lsa, *et–tırnak* munosabati qarindoshlikni ajralmas birlik sifatida metaforik tarzda konseptuallashtiradi. Ingliz paremiologiyasida esa *family, home, blood, father, mother, child, son, daughter, kin* kabi birliklar oila va naslga oid konseptual maydonni shakllantiradi. *"Blood is thicker than water", "Charity begins at home", "Like father, like son", "East, west, home is best"* kabi paremalar oilaviy yaqinlik, uy, nasliy davomiylik va tarbiya kabi tushunchalarni turli kognitiv modellar orqali ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek, turk va ingliz tillaridagi maqollarda "oila" va "qarindoshlik" konseptlarining kognitiv tuzilishi hamda ularning verbalizatsiya usullarini qiyosiy jihatdan aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari "oila" va "qarindoshlik" konseptlarining kognitiv mazmunini aniqlash, uch til paremiologik fondida mazkur konseptlarni verbalizatsiya qiluvchi asosiy birliklarni ajratish, oila va qarindoshlikning kognitiv submodellarini belgilash, o'zbek, turk va ingliz maqollarida mazkur submodellar qanday obrazlar orqali ifodalanishini aniqlash hamda universal va etnomadaniy komponentlarni qiyoslashdan iborat. Tadqiqot materiali o'zbek, turk va ingliz tillarining maqol to'plamlari hamda ushbu mavzuga bag'ishlangan paremiologik tadqiqotlarda qayd etilgan birliklardan tashkil topdi [1; 2; 4]. Tahlilda konseptual, kognitiv-semantik, qiyosiy-tipologik va interpretativ metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar maqollarning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki ular asosida shakllangan bilim modeli va baholash tizimini aniqlash imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida shakllangan, muayyan obyekt yoki hodisa haqidagi bilim, tasavvur, assotsiatsiya, baho va tajribalarni birlashtiruvchi mental birlik sifatida talqin qilinadi. A. Askoldov konseptni inson tafakkurida so'zga bog'langan fikriy birlik sifatida izohlagan bo'lsa, zamonaviy kognitiv yondashuvlarda konseptning tuzilishi uning turli bilim qatlamlari va tajribaviy komponentlari orqali ochib beriladi [5]. J. Lakoff va M. Johnson esa konseptual tizim insonning kundalik tajribasi hamda metaforik tafakkuri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [6]. Oila konsepti ushbu nuqtayi nazardan bitta "family" yoki "oila" leksemasi bilan chegaralanmaydi. U ota, ona, farzand, er, xotin, aka, uka, opa, singil, uy, mehr, tarbiya, himoya, mas'uliyat, nasl va davomiylik kabi ko'plab semantik-kognitiv komponentlarni birlashtiradi. Shu bois uni konseptual maydon sifatida tasavvur qilish maqsadga muvofiq. Qarindoshlik konsepti esa oila konseptiga nisbatan kengroq ijtimoiy munosabatlar tizimini qamrab oladi. Bunda qon-qarindoshlik, nikoh orqali yuzaga kelgan aloqalar, avlodlararo munosabatlar, qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro majburiyat va ijtimoiy yaqinlik kabi komponentlar mavjud bo'ladi. Shu asosda tadqiqotda "oila" konseptining yadrosini **ota – ona – farzand – er – xotin – uy** birliklari tashkil etishi, "qarindoshlik" konseptining esa **aka-uka – opa-singil – amaki – tog'a – xola – amma – qarindosh – quda – kelin – kuyov – avlod** kabi kengroq birliklar orqali konkretlashishi kuzatiladi.

Mazkur konseptlarning paremiologik verbalizatsiyasida yana bir muhim jihat mavjud: maqol ko'pincha qarindoshlik nomini bevosita ishlatmasdan ham oilaviy munosabatni ifodalashi mumkin. Masalan, "Qush uyasida ko'rganini qiladi" maqolida "oila" yoki "ota-ona" so'zlari bevosita mavjud emas. Biroq **uya → qush → bola → kuzatish → taqlid → tarbiya** zanjiri orqali oila va ijtimoiylashuv freymi faollashadi.

Demak, konsept verbalizatsiyasi nominativ emas, balki obrazli va bilvosita xarakterga ham ega bo‘lishi mumkin. O‘zbek paremiologik fondida oila konsepti, avvalo, birlik va osoyishtalik, ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, uy va ro‘zg‘or, avlod davomiyligi kabi kognitiv komponentlar orqali ifodalanadi. “*Oila tinch – yurt tinch*” maqolida oila va jamiyat o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik bevosita ifodalanadi. Bu parema asosida **oila → jamiyat** konseptual metonimik modeli yotadi. Oiladagi tinchlik kengroq ijtimoiy osoyishtalikning kichik modeli sifatida ko‘rsatiladi. Demak, oila faqat shaxsiy hayot makoni emas, balki jamiyat barqarorligining boshlang‘ich nuqtasi sifatida konseptuallashtiriladi. “Onali uy bozor, bolasiz uy mozor” maqolida esa **ona → hayot → uy → baraka** munosabati shakllanadi. “Bozor” va “mozor” obrazlarining qarama-qarshi qo‘yilishi orqali onali uyning hayotiyligi, harakat va fayzga egaligi, bolasiz uyning esa bo‘shliq va sokinlik bilan bog‘lanishi ifodalanadi. Bu yerda oila konsepti faqat qarindoshlik munosabati emas, balki hayotiy makon sifatida modellashtirilgan. “*Ota rozi – udo rozi”* maqolida ota obrazi diniy-axloqiy baho bilan birlashadi. Ota roziligi insonning ijtimoiy va ma’naviy maqomini belgilovchi omil sifatida konseptuallashtiriladi. Bunda **ota → hurmat → rozilik → ezgulik** kognitiv modeli shakllanadi. Mazkur modelda qarindoshlik munosabati aksiologik mazmun bilan boyitiladi. “*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*” maqoli esa farzand tarbiyasi bilan bog‘liq eng muhim kognitiv modellaridan birini namoyon qiladi. Qush va uya haqidagi konkret tajriba inson oilasiga ko‘chiriladi. **Uya → oila, qush bolasi → farzand, ko‘rish → o‘rganish**, **taqlid → xulq** konseptual mosliklari yuzaga keladi. Natijada oila bolaning xulq-atvorini shakllantiruvchi birlamchi ijtimoiy muhit sifatida konseptuallashtiriladi. “*Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”* maqolida oila konsepti biologik ota-onadan tashqari keng jamoaviy tarbiya modeliga kengayadi. Bu paremada **bola → oila → mahalla → jamoaviy mas’uliyat** zanjiri shakllanadi. Shunday qilib, o‘zbek paremiologik tafakkurida farzand tarbiyasi faqat individual ota-onaning vazifasi emas, balki keng ijtimoiy muhitning mas’uliyati sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, o‘zbek maqollarida oila konseptining kognitiv yadrosi **birlik, hurmat, tarbiya, mehr, mas’uliyat va ijtimoiy davomiylik** komponentlari bilan belgilanadi. Bu komponentlar ko‘pincha *uy, uya, ota-ona, bola, bozor, mozor, mahalla* kabi konkret obrazlar orqali verbalizatsiya qilinadi.

Turk paremiologiyasida oila va qarindoshlik munosabatlari qarindoshlik nomlari, oilaviy rollar va avlodlararo munosabatlar orqali faol verbalizatsiya qilinadi. Tadqiqotlarda turk maqollarida qarindoshlik nomlari alohida baholovchi va emotsional mazmun kasb etishi ko‘rsatilgan [2, 3]. Xususan, *anne, baba, çocuk, kardeş, amca, dayı, teyze, hala, gelin, kaynana, eş* kabi birliklar turli ijtimoiy rollarni konseptuallashtiradi. “*Ana gibi yar olmaz*” maqolida **ona → beqiyos mehr → himoya** kognitiv modeli mavjud. Ona obrazi inson hayotidagi o‘rnini boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan almashtirib bo‘lmaydigan shaxs sifatida ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi “Onaning o‘rnini hech kim bosa olmaydi” mazmunidagi paremalar bilan qiyoslaganda, ikki til o‘rtasida konseptual invariant yaqqol ko‘rinadi. “*Dişi kuş yapar yuvayı*” maqolida ayolning oila tashkil etish va uni saqlashdagi roli “uya” metaforasi orqali ifodalanadi. Bu yerda **qush uyasi → oila, uyani qurish → oilani barpo etish** konseptual xaritasi shakllanadi. Ushbu model o‘zbek tilidagi “*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*” maqolidagi “uya” obraziga yaqin bo‘lsa-da, konseptual funksiyasi boshqa: o‘zbek maqolida *uya* tarbiya makoni bo‘lsa, turk maqolida u oilani barpo etish makonini modellashtiradi. “*Et tırnaktan ayrılmaz*” maqolida qarindoshlik aloqasi **tana qismlari → ajralmaslik → qarindoshlik** metaforik modeli asosida ifodalanadi. Et va tirnoqning biologik jihatdan bir-biriga bog‘liqligi qarindoshlar o‘rtasidagi ajralmaslikni konseptuallashtirish uchun manba sohaga aylanadi. “*Oğlan dayıya, kız halaya çeker*” maqolida esa nasliy va oilaviy o‘xshashlik qarindoshlik munosabatlari orqali modellashtiriladi. Bu parema **nasl → qarindoshlik → o‘xshashlik** kognitiv modelini faollashtiradi. Unda bolaning xususiyatlari faqat ota-onaga emas, balki kengroq qarindoshlik tizimiga bog‘lanadi. Turk paremiologiyasida qaynona-kelin, elti, görümce kabi nikoh orqali shakllanadigan munosabatlarning ham faol aks etishi oila konseptining faqat “ota–ona–farzand” uchligidan iborat emasligini ko‘rsatadi [2]. Shu jihatdan turk maqollarida **qarindoshlik** konsepti nikohdan keyingi ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oluvchi keng tarmoqli kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz paremiologiyasida oila konsepti *family, home, blood, father, mother, son, daughter, child, tree* kabi birliklar orqali verbalizatsiya qilinadi. Ushbu birliklar asosida oilaviy yaqinlik, nasliy davomiylik, tarbiya, uy va shaxsiy mas’uliyat kabi kognitiv mazmunlar shakllanadi. “*Blood is thicker than water*” maqolida **qon → qarindoshlik, suv → begona aloqa** konseptual oppozitsiyasi yuzaga keladi. Qon biologik yaqinlikning, suv esa umumiy va zaifroq aloqaning metaforik manbai sifatida ishlatiladi. Natijada biologik yoki qarindoshlik aloqalari boshqa munosabatlardan kuchliroq ekanligi haqidagi baholovchi model shakllanadi. “*Charity begins at home*” maqolida oila insonning axloqiy faoliyati boshlanadigan makon sifatida konseptuallashtiriladi. **home → axloqiy tarbiya → ijtimoiy xulq** modeli orqali insonning boshqalarga nisbatan mehribonligi va yordam ko‘rsatishi avvalo o‘z uyidan boshlanishi kerakligi haqidagi

konseptual xulosa ifodalanadi. "*Like father, like son*" maqolida esa ota va farzand o‘rtasidagi o‘xshashlik **ota → namuna → o‘g‘il → xulq** modeli orqali ifodalanadi. Ushbu model o‘zbek va turk tillaridagi farzandning ota-onaga o‘xshashi haqidagi paremalar bilan konseptual jihatdan yaqin. Biroq uning ingliz tilidagi verbalizatsiyasi qisqa parallel konstruktsiya asosida shakllangan. "*The apple doesn't fall far from the tree*" maqolida daraxt va meva obrazlari orqali nasliy davomiylik konseptuallashtiriladi. **daraxt → ota-ona, meva → farzand, masofa → xulqiy farq** kabi konseptual mosliklar shakllanadi. Bu model o‘zbek va turk tillaridagi "*bola ota-onasidan o‘rnak oladi*" mazmunidagi paremalar bilan qiyoslanganda, turli xalqlarda nasliy va tarbiyaviy davomiylikni tabiat obrazlari orqali ifodalashning universal kognitiv imkoniyatini ko‘rsatadi. "*East, west, home is best*" maqolida esa **uy → xavfsizlik → komfort → shaxsiy farovonlik** modeli ustuvor. Bunda oila va uy shaxs uchun eng maqbul va xavfsiz makon sifatida konseptuallashtiriladi. O‘zbek maqollarida ham *uy* ko‘pincha *osoyishtalik, fayz va ijtimoiy birlik* bilan bog‘lanadi. Demak, **home/uy** obrazi uchala tilda ham oila konseptining muhim verbalizatori bo‘la oladi.

Muhokama. O‘zbek, turk va ingliz maqollarini qiyoslash natijasida *"oila*" va "*qarindoshlik*" konseptlarining bir qator umumiy kognitiv komponentlari aniqlanadi. Ularning eng asosiylari *ota-ona va farzand munosabati, oilaviy yaqinlik, tarbiya, avlodlar davomiyligi, uy va xavfsizlik, qarindoshlik rishtalari hamda oilaviy mas'uliyatdir*. Biroq ushbu invariant komponentlarning verbalizatsiyasi uchala tilda turlicha. O‘zbek maqollarida oila ko‘pincha keng ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. *"Mahalla", "ota-ona", "uy", "bola", "qush uyasi"* kabi obrazlar oilaviy munosabatning jamoaviy va tarbiyaviy tabiatini kuchaytiradi. Bu holat oilani individual birlikdan ko‘ra kengroq ijtimoiy tizimning bir qismi sifatida konseptuallashtirish imkonini beradi. Turk maqollarida esa qarindoshlik tizimining ichki rollari nisbatan aniqroq verbalizatsiya qilinadi. *Anne, baba, dayı, hala, teyze, amca, gelin, kaynana, görümce* kabi birliklarning faol qo‘llanishi qarindoshlik munosabatlarining rollarga bo‘lingan kognitiv tuzilishini ko‘rsatadi [2; 3] Bunday xususiyat turkiy paremiologik an'ananing umumiy jihatlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur o‘xshashlikni faqat til qarindoshligi bilan izohlash to‘g‘ri emas; umumiy tarixiy-madaniy tajriba va ijtimoiy institutlar ham muhim omil hisoblanadi. Ingliz maqollarida esa *family* va *home* birliklari ko‘pincha *shaxsning axloqiy tajribasi, nasliy o‘xshashlik va individual mas'uliyat* bilan birgalikda konseptuallashtiriladi. Biroq bundan ingliz paremiologiyasi faqat individualistik xarakterga ega, degan qat'iy xulosa chiqarish metodologik jihatdan asosli emas. Chunki ingliz maqollarida ham oilaviy birdamlik, ota-ona qadri va qarindoshlik aloqalarini ulug‘lovchi ko‘plab birliklar mavjud.

Demak, kognitiv jihatdan **oila** konseptining invariant modeli **oila → yaqinlik → himoya → tarbiya → mas'uliyat → davomiylik, qarindoshlik** konseptining umumiy modeli esa **qarindoshlik → qon/nikoh → aloqa → o‘zaro majburiyat → ijtimoiy yaqinlik → baho** tarzida ifodalanishi mumkin. Mazkur modellar uchala til materialida turli leksik, metaforik va grammatik vositalar orqali verbalizatsiya qilinadi.

Oila va qarindoshlik konseptlarining paremiologik ifodasida metaforik modellashtirish alohida ahamiyatga ega. J. Lakoff va M. Johnson konseptual metaforani insonning abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglash mexanizmi sifatida izohlaydi [6]. Paremalarda ham qarindoshlik va oilaviy munosabatlar ko‘pincha tana, tabiat, makon va predmetlar orqali ifodalanadi. Masalan, turk tilidagi "*Et tırnaktan ayrılmaz*" hamda ingliz tilidagi "*Blood is thicker than water*" paremalarida biologik tajriba ijtimoiy munosabatni anglash uchun manba sohaga aylanadi. O‘zbek tilida "*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*" maqolida esa *qush va uya* obrazi *inson oilasidagi tarbiya jarayoni*ni modellashtiradi. Shunday qilib, oilaviy munosabatlarni ifodalovchi asosiy metaforik modellarni **oila – uya, qarindoshlik – qon, farzand – meva, oila – makon, tarbiya – ko‘rish/taqlid, nasl – daraxt** tarzida umumlashtirish mumkin. Bu modellar oila va qarindoshlik haqidagi abstrakt bilimlarni kundalik tajriba bilan bog‘laydi. Natijada maqolning kommunikativ ta'siri kuchayadi va murakkab ijtimoiy munosabat qisqa, obrazli hamda yodda qoladigan shaklda ifodalanadi.

Kognitiv-verbalizatsion tahlilni faqat nominativ birliklar bilan chegaralash yetarli emas. Oila va qarindoshlik konseptlarining maqollardagi muhim xususiyatlaridan biri ularning aksiologik, ya'ni baholovchi tabiatidir. O‘zbek maqollarida *ota-ona, oila, farzand va qarindoshlik* ko‘pincha ijobiy baholanadi. *Hurmat, mehr, birlik, sadoqat, tarbiya va o‘zaro yordam* asosiy ijobiy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda oila shaxsning axloqiy shakllanishi va jamiyatdagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy institut sifatida ko‘rsatiladi. Turk maqollarida ham qarindoshlikning ijobiy bahosi kuchli, biroq qarindoshlar o‘rtasidagi ziddiyat va ijtimoiy masofa ham paremiologik materialda aks etadi. Masalan, qarindoshlik aloqasining yaqinligi bilan bir qatorda, *gelin–kaynana, elti–görümce* kabi munosabatlarning murakkabligi ham verbalizatsiya qilinadi.[2] Demak, turk paremiologik konseptualizatsiyasi oilani faqat ideal munosabatlar tizimi sifatida emas, balki *turli rollar va manfaatlar kesishadigan ijtimoiy makon* sifatida ham tasvirlaydi. Ingliz maqollarida ham oila ijobiy qadriyat sifatida aks etadi, biroq ayrim paremalarda *shaxsiy*

tajriba, ehtiyotkorlik va mustaqillik bilan bog‘liq baholashlar ustuvor bo‘lishi mumkin. Bu holat oila konseptining mutlaq bir xil emasligini, balki muayyan madaniy diskurs doirasida turli qiymat komponentlarini birlashtirishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, “OILA” konseptining aksiologik yadrosini uchala tilda ham **mehr, yaqinlik, himoya, tarbiya, hurmat va davomiylik** tashkil etadi. Farq esa ushbu qadriyatlarning qaysi biri ko‘proq faollashishi va qanday obrazlar orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari *“oila”* va *“qarindoshlik*” konseptlarini bitta semantik maydon sifatida birlashtirish bilan birga, ularning ichki iyerarxiyasini ham farqlash zarurligini ko‘rsatdi. “*Oila*” konsepti asosan birlamchi ijtimoiy guruh va uy-makon bilan bog‘liq bo‘lsa, “*qarindoshlik*” konsepti oila chegarasidan tashqariga chiqib, nasl, nikoh, qarindoshlararo majburiyat va ijtimoiy aloqalarni qamrab oladi. O‘zbek, turk va ingliz tillarida oila konseptining universal yadrosi mavjud bo‘lsa-da, uning kognitiv periferiyasi turlicha shakllanadi. O‘zbek tilida **mahalla va keng qarindoshlik**, turk tilida **qarindoshlik rollari va nikoh orqali shakllangan munosabatlar**, ingliz tilida esa **home, blood, ancestry va personal responsibility** kabi birliklar konseptual maydonning faol komponentlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundaki, konseptning verbalizatsiyasi bevosita nomlash bilan cheklanmaydi. *“Oila”* so‘zi mavjud bo‘lmagan maqolda ham oila konsepti *“uy”, “uya”, “daraxt”, “meva”, “qon”, “ota”, “ona”, “bola”* kabi obrazlar orqali faollashishi mumkin. Demak, paremiologik konseptualizatsiyada **to‘g‘ridan-to‘g‘ri verbalizatsiya** bilan bir qatorda **bilvosita obrazli verbalizatsiya** ham mavjud. Mazkur natija oila va qarindoshlik konseptlarini kognitiv tahlil qilishda quyidagi modelni taklif etish imkonini beradi: **Leksik verbalizator → obraz → kognitiv belgi → konseptual model → aksiologik baho → paremiologik xulosa.** Masalan, **“uya” → oilaviy makon → tarbiya → OILA → ijobiy baho → farzand oilada ko‘rganini takrorlaydi** yoki **“qon” → biologik yaqinlik → qarindoshlik → QARINDOSHLIK → yuqori qiymat → qarindoshlik rishtalari boshqa aloqalardan ustun.** Shu jihatdan kognitiv-verbalizatsion tahlil maqolning lug‘aviy tarkibi, metaforik qurilishi, konseptual mazmuni va aksiologik yo‘nalishini yagona metodologik tizimda ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa. Qiyosiy tahlil natijasida “OILA” konseptining universal kognitiv modeli **yaqinlik → himoya → tarbiya → mas’uliyat → davomiylik**, “QARINDOSHLIK” konseptining modeli esa **qon/nasab yoki nikoh → aloqa → o‘zaro majburiyat → ijtimoiy baho** ko‘rinishida umumlashtirildi. Ushbu invariant modellar turli tillarda turlicha verbal va obrazli vositalar yordamida konkretlashadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, qarindosh tillar bo‘lgan o‘zbek va turk tillaridagi o‘xshashliklarni faqat genetik qarindoshlik bilan izohlash yetarli emas. Bunda umumiy tarixiy-madaniy tajriba, ijtimoiy institutlar va uzoq muddatli madaniy aloqalar ham hisobga olinishi lozim. Ingliz tili materiallari esa oila va qarindoshlik kabi universal konseptlarning boshqa madaniy muhitda qanday kognitiv va lisoniy vositalar bilan modellashtirilishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maqollarda “Oila” va “Qarindoshlik” konseptlarining verbalizatsiyasi uch darajada amalga oshadi: **bevosita nominativ verbalizatsiya** (“ota”, “ona”, “family”, “anne”, “baba”); **obrazli-metaforik verbalizatsiya** (“uya”, “qon”, “daraxt”, “meva”); **konseptual-pragmatik verbalizatsiya**, bunda butun maqol muayyan oilaviy yoki qarindoshlik tajribasini umumlashtiruvchi kognitiv model sifatida xizmat qiladi. Mazkur xulosalar o‘zbek, turk va ingliz tillari paremiologik fondini konseptual-semantik va kognitiv jihatdan tizimlashtirish, shuningdek, kelgusida **“oila → qarindoshlik → nikoh → tarbiya → nasl → ijtimoiy mas’uliyat”** konseptual zanjiri asosida kengroq qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun metodologik asos bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.*
2. *Yılmaz Y., Sarı H. Türk atasözlerinde akrabalık adlarının kullanımı // RumeliDE Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi. – 2015. – № 2. – S. 163–182.*
3. *Hirik E. Türkiye Türkçesi atasözlerinde akrabalık bildiren kelimeler ve duygo değerleri // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. – 2017. – C. 6. – № 3. – S. 1742–1764.*
4. *Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. I–II. – İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 1988.*
5. *Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Academia, 1997. – С. 267–279.*
6. *Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.*
7. *Fillmore C.J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. – P. 111–137.*

8. Minsky M. A framework for representing knowledge // The Psychology of Computer Vision / ed. P.H. Winston. – New York: McGraw-Hill, 1975. – P. 211–277.

9. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 304 p.

10. Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Berlin; New York: Mouton, 1985. – 216 p.

11. Honeck R.P. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1997. – 312 p.

12. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.

13. Çelik A. Türk atasözlerinde soy ve akrabalık // Nevşehir Hacı Bektaş Veli Üniversitesi SBE Dergisi. – 2021. – C. 11. – № 4. – S. 1630–1645.

14. Güngör Ergan N. Türk atasözleri ve deyimlerinde aile ve akrabalık anlayışı // Türkoloji Dergisi. – 2018. – № 2. – S. 45–58.

15. Belkhir S. (Ed.). Proverbs within Cognitive Linguistics: State of the Art. – Amsterdam: John Benjamins, 2024. – 280 p.